

A.T.ESHMURODOV

# JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR

fani bo'yicha sirtqi ta'lim  
shakli talabalari uchun

*Uslubiy qo'llanma*



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**RENESSANS TA’LIM UNIVERSITETI  
“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI**

**A.T.Eshmurodov**

**JAMIYAT VA TARBIYAVIY  
JARAYONLAR**

fani bo‘yicha sirtqi ta’lim shakli  
talabalari uchun

*Uslubiy qo‘llanma*

TOSHKENT  
2023

**Eshmurodov, Akbar**

Akbar Eshmurodov. Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar. – Toshkent, 2023, – 60 bet.

**Taqrizchi:**

O‘.B.Shakarov – Renessans ta’lim universiteti  
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Mazkur uslubiy qo‘llanma “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining 2023-yil 3-oktyabrdagi 3-sonli majlisida va Renessans ta’lim universiteti Kengashining 2023-yil 3-noyabrdagi № 3/1-son yig‘ilishida muhokama etilgan va chop etishga tavsiya qilingan.*

© “Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar”. Akbar Eshmurodov, 2023

## KIRISH

Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim dargohlarining ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Ayni damda oliy ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ayniqsa, sotsiologiya, dinshunoslik, tarix, etika, estetika kabi insonning amaliy faoliyati bilan bog'liq fanlarga zaruriyat kuchaymoqda. Zero, bu fanlarning oldida Yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish, ularni har tomonlama kamol topgan zamon kishisi

qilib tarbiyalash kabi ezgu vazifalar turibdi. Bu vazifalarni amalga oshirishda fanlarni zamonaviy pedagogik va innovation texnologiyalar asosida o'qitishning ijobiy samarasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'zining isbotini topgan.

“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fani oldida ikki vazifa turadi:

birinchisi, bo'lajak pedagoglarni jamiyat va tarbiyaviy ishlar uslubiyotiga oid bilimlar bilan tanishtirish hamda ana shu bilimlarni mahorat bilan qo'llash malakasini shakllantirish;

ikkinchisi bo'lajak pedagoglarni jamiyat va tarbiyaviy jarayonlarga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash.

Chunki jamiyat hayoti va tarbiya jarayonlari uzluksiz rivojlanib, o'zgarib boruvchi jarayondir. Tarbiya jarayoni har bir vaziyatga ijodkorona yondashuvni talab etadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma o'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning “Assisment”, “Muammo-li vaziyat”, “FSMU”, “TEST” metodlarining ssenariylari o'rin olgan. Ushbu uslubiy qo'llanma talabalarga fanni o'zlashtirishi va zarur bilimlarni olishida ko'makchi bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

**1-MAVZU: “JAMIYAT VA TARBIYAVIY  
JARAYONLAR” FANINING PREDMETI,  
MAQSAD VA VAZIFALARI. IJTIMOY  
FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI**

**REJA:**

1. *“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanini ta’lim tizimiga joriy etishdagi zaruriyat.*
2. *Fanning predmeti, maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.*
3. *“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.*
4. *Fanni o‘qitishda tavsiya etiladigan usul, metod hamda texnologiyalar.*

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti barcha davlatlarda rivojlanişning mohiyati, uning sur’ati, insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma’naviy kamolot darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Qayerda ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy fazilat yuksak bo‘lib, ma’rifiy-tarbiyaviy jarayonlar oqilona yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, u yerda jamiyatning ijtimoiy adolat mezonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma’lum. Biz qurayotgan Yangi O‘zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy. Bu tomonlar qancha mustahkam va baquvvat bo‘lsa, kelajagimiz ravnaqi shuncha baquvvat bo‘lib, jamiyat tez rivojlanadi.

Tarbiyaviy jarayonlar yuksak odob-axloq me’yorlari kecha va bugun o‘ylab topilgan narsa emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha yillar davomida, ajdodlar tajribasiga suyangan holda kelajagimiz bo‘lgan yoshlarga ma’naviy-axloqiy meros sifatida o‘rgatilib kelinadi. Jahon tarixiga nazar solsak, jamiyatning ravnaqi har bir xalqning avvalo ma’naviy birlashuvi uning milliy g‘oyasi va milliy tarbiya tizimiga qarab yuksalgan.

Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya va milliy tarbiya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyat”.

**“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanining obyeksi** – jamiyat hayotida tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlar, sodir bo‘lgan barcha voqea va hodisalardan iborat.

Fanning **predmeti** o‘zbek xalqining qadimdan boshlab to hozirgi kunlarga qacha ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarbiyaviy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarbiyaviy faoliyat jarayonlarini o‘rganishdir.

**“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanining maqsadi** – jamiyatning qadriyatiga aylangan tarbiya bilan to hozirgi kungacha bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘lini, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotini xolisona o‘rganish orqali fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida vatanparvarlik, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish va ko‘nikma hosil qilishdan iborat.

#### **Fanning asosiy vazifalari:**

– talabalarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish;

– talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, uni boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

– vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rgatish;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish;

– mustaqil davlatimiz – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushunish.

Tarbiyaviy jarayonlarning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksizdir.

“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fani Sharq mutafakkirlari va milliy tarbiya tizimining boy tajribalariga tayanadi. O‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma’lumotlaridan foydalanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. “Jamiyat” va “tarbiya” tushunchalari qanday ma’noni anglatadi va ular o‘rtasidagi umumiylik nimada?
2. “Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanini ta’lim tizimiga joriy etishdan qanday maqsad ko‘zlangan?
3. Fanning asosiy maqsad va vazifalari nima yo‘naltirilgan?
4. Tarbiyaviy jarayonlarning asosiy vazifasi nimadan iborat?
5. Tarbiyaning tarkibiy qismlariga izoh bering!



## AMALIY MASHG‘ULOT

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

#### *1-topshiriq*

**Mavzu: “Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar”  
fanining predmeti, maqsad va vazifalari.**

**Ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni**

#### **REJA:**

1. “Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanini ta’lim tizimiga joriy etishdagi zaruriyat.
2. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. “Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashg‘ulotida og‘zaki shaklda gapirib beradilar.*

#### *2-topshiriq*

**“Jamiyatimizda milliy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari”** mavzusida esse yozing. Esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi

#### *3-topshiriq*

**Tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda ta’lim muassasalarining o‘rni borasidagi muammolarni assisment usulida aniqlang.**

### **Muammoni yechish usuli**

<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Kuchsiz tomoni</b>

#### 4-topshiriq

**Shaxs ma'naviy yuksalishida milliy tarbiyaning o'rnini yoriting.** FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.

Savol	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

#### 5-topshiriq

##### Muammoli vaziyat

**Yoshlar tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyatsizligi muammosiuning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish va yechimlarini o'rganish.**

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

#### 6-topshiriq

##### Test

**1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida ta'lim masalalariga oid norma belgilangan?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi
- B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasi
- C) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi
- D) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi

**2. Qaysi davlatda mamlakatda onalarning bola tarbiyasidan ajralmagan holda qo'shimcha bilim olishiga katta e'tibor beriladi?**

- A) Yaponiya tarbiyasi

- B) Finlyandiya tarbiyasi
- C) Fransiya tarbiyasi
- D) Italiya tarbiyasi

**3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni qachon imzoladi?**

- A) 2016-yil 29-dekabr
- B) 2017-yil 25-dekabr
- C) 2018-yil 23-dekabr
- D) 2019-yil 27-dekabr

**4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni qachon imzolandi?**

- A) 2019-yil 8-oktyabr
- B) 2020-yil 7-noyabr
- C) 2021-yil 19-yanvar
- D) 2020-yil 23-avgust

**5. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlariga muvofiq, xorijiy oliy ta’lim muassasalari dasturlari asosida o‘qitish tashkil qilingan OTMLar soni 23 tadan nechta... taga ko‘payadi?**

- A) 45 ta
- B) 100 ta
- C) 56 ta
- D) 49 ta

**6. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlariga muvofiq, o‘quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan necha ... foizga oshiriladi.**

- A) 30 foiz
- B) 36 foiz
- C) 56 foiz
- D) 39 foiz

**7. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq, magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ilmiy faoliyatga yo'naltirish 15 foizdan necha .... foizgacha ko'tariladi?**

- A) 45 foiz
- B) 76 foiz
- C) 86 foiz
- D) 79 foiz

**8. Mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari bu...**

- A) Mafkuraviy tarbiya
- B) Mehnat tartibi qoidasi
- C) Mafkuraviy tizim
- D) Mafkuraviy tamoyil

**9. 2019-yil aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib necha foizga oshadi?**

- A) 50 foiz
- B) 56 foiz
- C) 76 foiz
- D) 99 foiz

**10. Kim "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan g'oyani ilgari surgan?**

- A) Abdulla Avloniy
- B) Abdulla Qodiriy
- C) Behbudiy
- D) Cho'lpon

**7-topshiriq**  
**Mustaqil ish**

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Shakli
1	“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanini ta'lim tizimiga joriy etishdagi zaruriyat.	Manbalar bilan ishlash (glossariy tuzish, test)
2	“Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar” fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'ri.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	“Jamiyat” va “tarbiya” tushunchalari. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.	Taqdimot
4	Tarbiyaviy jarayonlarning ijtimoiy jarayonlar rivojidadagi o'ri.	Esse, (glossariy tuzish, test)
5	Jamiyatning tarbiyaviy jarayonlarga bo'lgan ehtiyoji.	Taqdimot
6	Qadimgi Sharq manbalarida jamiyat va tarbiya haqidagi qarashlar. Movarounnahrda tarbiya va uning turlari.	Multimediali taqdimotlar yaratish
7	Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri va uyg'onish davri allomalari merosida tarbiya masalasi hamda jamiyat va davlat munosabatlarida shaxs tarbiyasining o'ri haqidagi qarashlar.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
8	Temur va temuriylar davrida shaxs tarbiyasiga e'tibor, tarbiyada o'ziga xos yondashuv usullari.	Test (glossariy tuzish)
9	Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlarida tarbiya masalasi.	Multimediali taqdimotlar yaratish

*Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar.*

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 J. – T.: O'zbekiston, 1996-2015.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017; Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

3. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – T.: Movaroun-nahr, 2005.

4. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2001.

5. Abdulqosim Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992.

6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san'at, 1983.

7. O. Safarov, M. Maxmudov. Oila ma'naviyati. — T: Ma'naviyat, 2009.

8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Xalq merosi, 1993.

9. R.Mavlonova “Tarbiyaviy ish metodikasi” darslik. – T.: 2014.

## 2-MAVZU: JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR TO‘G‘RISIDAGI TA‘LIMOTLAR, G‘OYALAR VA QARASHLAR

### REJA:

1. *Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davridagi bola tarbiyasi.*
2. *Islom ma‘rifat sivilizatsiyasining ta‘lim-tarbiyaga ta‘siri.*
3. *Qur‘oni Karim va Hadislarda axloq-odob, iymon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari.*
4. *Imom Ismoil al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma‘rifiy merosi.*

Jamiyat nima? tarbiya nima? u qanday hodisa, qachon paydo bo‘lgan? tarbiya jarayonining ildizlari qaysi sarchashmalardan suv ichgan, tadrijiy taraqqiyoti qanday kechgan? U qanday jarayon? Uning mohiyati nimada? Jamiyatning davrlar to‘lqinidagi taraqqiyoti darajasiga tarbiyaning ta‘siri bormi? Ushbu savollarga javob berish asosida insonning barcha taraqqiyot bosqichlaridagi faoliyati, jamiyat taraqqiyoti, hayot kechirishi, turmush tarzi, rivojlanish jarayoni ta‘lim-tarbiya negizida qurilganligini e‘tirof etish muhimdir.

Jamiyat – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma‘naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va b.) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chor-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini

ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Tabiatning oliy mahsuli, siyмосi inson o'z aql-zakovati bilan o'zini himoya qiladigan mustaqil, erkin qilib yaratilgan. Shuning uchun tabiat hodisalari, jarayonlarini o'rganish ulardan yashash uchun oqilona foydalanish asosida insonlar sekin-asta madaniylashuvi, ijtimoiylashuvi asosida ma'naviy qadriyatlar shakllana boshlagan, rivojlana boshlagan. Ilk davrlarda ta'lim yoshlarga, ota-onalarning yashash uchun tabiatdan foydalanishi, uy-ro'zg'or yuritish, o'zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida shakllana boshlagan bo'lsa, bilimlar hajmi kengaya boshlagach, maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug'ila boshlangan.

Bu qarashlar mashhur "Avesto" (er.av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (er.av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan. 610-yillarga kelib yaratilgan Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"da inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. "Qur'oni Karim"dagi ta'lim — tarbiyaga oid ulug' xazina Al-Buxoriy hazratlarining Hadislarida beriladi.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda yashab ijod qilgan, o'z asarlarida jamiyat ravnaqi va tarbiya sohasiga oid ilg'or g'oyalarni ilgari surgan vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustam-



lakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmron edi. Shunday bo'lsa-da, bu davrda Siddiqiy, Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza, Abdulla Avloniy, Ibrat, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Qori-Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga, pedagogikasiga oid ko'plab asarlar yozdilar, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, ma'naviy, mafkuraviy tahdidlarning mohiyati, tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari I.A.Karimov asarlarida o'z ifodasini topganini alohida qayd etish lozim. Jumladan, "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi ekanligi yuksak ma'naviyatli shaxs tim-solida namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Jamiyatimizning milliy yuksalish bosqichida jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashni samarali tashkil qilish, tarbiyaviy jarayonlarni kuchaytirish masalalari davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning asarlari, qaror va farmonlari, nutq va ma'ruzalarida o'z aksini topmoqda.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Jamiyat va tarbiya tushunchasining mohiyatining izohlang?
2. Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davridagi bola tarbiyasi qanday shaklda amalga oshirilgan?
3. Islom ma'rifat sivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri qanday bo'lgan?
4. Qur'oni Karim va hadislarda axloq-odob, iymon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari qanday bayon etilgan?
5. Bugungi kunda Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma'rifiy merosining ahamiyatini qanday baholaysiz?

## AMALIY MASHG‘ULOT

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar *1-topshiriq*

**Mavzu. Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar to‘g‘risidagi ta’limotlar, g‘oyalar va qarashlar**

#### **REJA:**

1. Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davridagi bola tarbiyasi.
2. Islom ma’rifat sivilizatsiyasining ta’lim-tarbiyaga ta’siri.
3. Qur’oni Karim va Hadislarda axloq-odob, iymon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yoza-dilar va uni seminar mashg‘ulotida og‘zaki shaklda gapirib beradilar.*

#### *2-topshiriq*

**“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar masalalarini aks etishi”** mavzusida esse yozing. Esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi

#### *3-topshiriq*

**Globalashuv davrida O‘zbekistonda jamiyat ma’naviy xavfsizligini ta’minlash borasidagi muammolarni assisment usulida aniqlang.**

#### **Muammoni yechish usuli**

<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Kuchsiz tomoni</b>

#### 4-topshiriq

**Jamiyat nima uchun tarbiyaviy jarayonlarsiz tanazzulga uchraydi?** FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.

Savol	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

#### 5-topshiriq

##### Muammoli vaziyat

**Yoshlarda ma'naviyatsizlik** muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish va yechimlarini o'rganish.

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

#### 6-topshiriq

##### Test

**1. Kim "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" degan g'oyani ilgari surgan?**

- A) Konfutsiy
- B) Abdulla Avloniy
- C) Behbudiy
- D) Cho'lpon

## **2. Tarbiya bu...**

A) Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy si-fatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon.

B) Biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchay-tirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llash.

C) Jamoa o'quvchining axloqidan uning ishga munosabati-dan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usuli

D) Tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani sa-marali deb aytish mumkin

## **3. Qaysi davlatda 15 yoshdan so'ng esa o'smirlarga teng huquqli fuqaro sifatida qaraladi?**

A) Yaponiya tarbiyasi

B) Finlyandiya tarbiyasi

C) Fransiya tarbiyasi

D) Italiya tarbiyasi

## **4. Taniqli pedagog A.S.Makarenko tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega eka-nini qayd etib o'tgan. Tarbiyaning bosh asosi necha yoshda nihoyasiga yetadi deb ta'kidlaydi?**

A) 5 yoshda

B) 6 yoshda

C) 7 yoshda

D) 8 yoshda

## **5. O'z-o'zini tarbiyalash usuli bu...**

A) Tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani sa-marali deb aytish mumkin

B) Biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchay-

tirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

C) Jamoa o'quvchining axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi.

D) Jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirish.

## **6. Rag'batlantirish usuli bu...**

A) Biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

B) Tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin.

C) Jamoa o'quvchining axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi.

D) Jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirish.

## **7. Jazolash usuli...**

A) Jamoa o'quvchining axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi.

B) Biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

C) Tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin

D) Tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin

**8. Qaysi davlat tarbiyasida 5 yoshdan 15 yoshga qadar kichik yaponiyaliklarni tartib-intizomga va kattalar gapini ikki qilmaslikka o‘rgatishadi?**

- A) Yaponiya tarbiyasi
- B) Finlyandiya tarbiyasi
- C) Fransiya tarbiyasi
- D) Italiya tarbiyasi

**9. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya tarbiyaviy jarayonning necha foizini tashkil etadi deb ta’kidlaydi?**

- A) 90 foiz
- B) 92 foiz
- C) 94 foiz
- D) 96 foiz

**10. Bugungi kunda respublikamizda nechta fuqarolar yig‘ini mavjud?**

- A) 9 349 ta
- B) 9 130 ta
- C) 9 050 ta
- D) 9 000 ta

**7-topshiriq**  
**Mustaqil ish**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Shakli</b>
1	Inson qadri va ma’naviy yuksakligining huquqiy-me’yoriy hujjatlarida ifoda etilishi.	Manbalar bilan ishlash (glossariy tuzish, test)
2	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – jamiyat va tarbiyaviy jarayonlarning asosi	Referat (glossariy tuzish, test)
3.	Ijtimoiy tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni.	Manbalar bilan ishlash (glossariy tuzish, test)

4.	Jamiyat ijtimoiy hayotida tarbiya masalalarining ichki va tashqi omil-larga bog'liqligi.	Referat (glossariy tu-zish, test)
5.	Tarbiyaviy jarayonlarda fikriy yak-dillikning ahamiyati.	Test
6.	Mehnat tarbiyasi va undan ko'zlangan maqsad.	Referat (glossariy tu-zish, test)
7.	Mehnatning insonni ezgulik, ado-lat, vijdon, halollik, insonparvarlik, go'zallik kabi tamoyillari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
8.	Sharq mutafakkirlari mehnat tarbi-yasi haqida.	Test (glossariy tuzish)
9.	Mehnat tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.	Referat (glossariy tu-zish, test)

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 J. – T.: O'zbekiston. 1996-2015.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokra-tik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimiz-ni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017; Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

3. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – T.: Movaroun-nahr, 2005.

4. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqi-da. – T.: Yozuvchi, 2001.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1971.

6. Abdulqosim Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992.

7. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: 1990.

8. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san’at, 1983.

9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.

10. Abdulla Qodiriy. To’la asarlar to’plami. T.1. – T.: Ma’naviyat, Oila ma’naviyati. O. Safarov, M. Maxmudov; — T.: Ma’naviyat, 2009

11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Xalq me-rosi, 1993.

### **3-MAVZU. JAMIYAT VA OILADA TARBIYA MASALASI**

#### **REJA:**

*1. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining o’rni.*

*2. Bola tarbiyasida oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oila tarbiyasida dinning o’rni. Oila tarbiyasi va uning jamiyat oldidagi mas’uliyati haqida sharq allomalarining qarashlari.*

*3. Hozirgi davrda oila oldidagi muammolar. Oila a’zolarining axloqiy munosabatlari.*

*4. Oilaning huquqiy asoslari.*

Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” degan juda ham ibratli va chuqur ma’noga ega bo’lgan so’z bor. Bu so’z zamirida oilaviy tarbiyaning jamiyat hayotiga nechog’li ta’sir ko’rsatishi bayon qilib berilgan. Agar ko’chada, jamoat joylarida tarbiyasiz qiliqlar qilib yurgan, odobsiz insonlarni ko’rsak, ular o’z uylarida yaxshi tarbiya topmaganliklariga amin bo’lamiz. Demak, oiladagi tarbiyaning jamiyat hayotiga bevosita ta’siri bor ekan. Zero, oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir. Agar jamiyatni katta bir binoga o’xshatsak, oilalar uning g’ishtlarini tashkil etadi. Shunday ekan, jamiyatimiz gullab-yashnashi uchun oilaviy tarbiyaga bor e’tiborimizni qaratmog’imiz muhimdir. Oila inson zoti yaratilganidan bosh-



lab davom etib, insoniyat tarixining hamma davrlarida har qanday tuzum va sharoitda ham kishilarning asosiy va muhim hamda sharaffli ishlaridan hisoblanadi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Insonni oiladan, oilani jamiyatdan ayricha tasavvur etish qiyin. Oila farzandlar tarbiyasi va kelajagi uchun mas'uldir. Zero, inson tabiati va dunyoqarashidagi barcha yaxshi xislatlar, avvalo, oilada kurtak yozadi. Darhaqiqat, o'zbek xalqining asosiy fazilatlarini farzandlar kamoli, ularning baxt-u saodati yo'lida g'amxo'rlik qilishda ko'proq namoyon bo'ladi.

Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Qur'oni Karimning "Baqara", "Niso" suralarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilgan. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Dinimizda oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan.

Tarixiy taraqqiyotning obyektiv rivojlanish qonuniyatlari-dan kelib chiqqan olamshumul ma'naviy-axloqiy muammolar, inson ma'naviy-ruhiy va axloqiy dunyoqarashidagi murakkab o'zgarishlar va muammolar o'zining oqilona yechimini topishni taqozo etmoqda. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi". Chunki hozirda G'arb jamiyatida an'anaviy

oila tanazzulga uchraganligi aniq. An'anaviy oila paradigmasi o'rnini zamonaviy oila modeli egallamoqda.

Oilaviy munosabatlar eng umumiy tarzda qaralganda, er-xotin munosabati, ota-onalik-farzandlar munosabatlaridan iborat. Bu munosabatlar mazmunida, shubhasiz, tabiiy munosabatlar-jinsin hissiyot, ota-onalik va farzandlik hissi, ya'ni qon-qardoshlik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu hissiyotlar tabiiyligicha namoyon bo'lmay, ijtimoiy shaklda-axloqiy-estetik, psixologik munosabatlar tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, oilaviy munosabatlar tizimida tabiiy, axloqiy, estetik, psixologik munosabatlarni farqlash mumkin. Bundan tashqari iqtisodiy va huquqiy munosabatlar ham mavjud bo'lib, ular oilani mustahkamlashda muhim mavqega ega.

Oilani mustahkamlash bugungi kunning muammolaridan biri desak xato qilmaymiz. Shu boisdan ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993-yil 20-sentyabr-dagi yig'ilishida 15-mayni har yili "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Oila jamiyat va davlat bilan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlarida aniq belgilandi. Konstitutsiyaning 76-moddasi 1-bandida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir"<sup>1</sup> deb qayd etilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila muqaddas dargoh ekanligi, bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanishi Bosh Qomusimizning o'zgartirish kiritilayotgan moddalarida o'z aksini aksini topayotganligini, unda mohiyatan yangi konstitutsiyamizda oila huquqlari yanada mustahkamlanganidan dalolatdir.

---

1 [OKOZ:1.04.00.00.00 Oila qonunchiligi / 04.02.00.00 Nikoh / 04.02.01.00 Nikoh tuzish tartibi va shartlari]

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Jamiyat taraqqiyotida oilaning tutgan o‘rni qanday?
2. Bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni va ularning tarbiyaviy vazifalari qanday taqsimlanishi kerak?
3. Oila tarbiyasida dinning o‘rni va ahamiyatini qanday baholaysiz?
4. Sharq allomalari asarlarida farzand tarbiyasi va ota-onaning jamiyat oldidagi mas’uliyati haqida qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
5. Hozirgi globallashuv davrida oila instituti oldida qanday muammolar mavjud?
4. Oilaning huquqiy asoslaridan xabardormisiz?.

## AMALIY MASHG‘ULOT

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

#### *1-topshiriq*

#### **Mavzu. Jamiyat va oilada tarbiya masalasi**

#### **REJA:**

1. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining o‘rni.
2. Bola tarbiyasida oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oila tarbiyasida dinning o‘rni. Oila tarbiyasi va uning jamiyat oldidagi mas’uliyati haqida sharq allomalarining qarashlari.
3. Hozirgi davrda oila oldidagi muammolar. Oila a’zolarining axloqiy munosabatlari.
4. Oilaning huquqiy asoslari.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashg‘ulotida og‘zaki shaklda gapirib beradilar.*

#### *2-topshiriq*

**“Oila mustahkam bo‘lishining asosiy shartlari nima?”** mavzusida esse yozing. Esse – o‘rganilayotgan mavzu

bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi

### **3-topshiriq**

**Bola tarbiyasida otaning vazifalari borasidagi muammolarni assisment usulida aniqlang**

#### **Muammoni yechish usuli**

<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Kuchsiz tomoni</b>

### **4-topshiriq**

**Nima uchun farzand tarbiyasida ota-onaning vazifalari taqsimlanishi kerak? FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.**

<b>Savol</b>	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

### **5-topshiriq**

#### **Muammoli vaziyat**

**Jamiyatdagi oilaviy ajrimlar muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish va yechimlarini o'rganish.**

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

## **6-topshiriq**

### **TEST**

**1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021/2022 o‘quv yilidagi statistik ma’lumotlariga asosan nechta maktab faoliyat yuritadi?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021–2022 o‘quv yilidagi statistik ma’lumotlariga asosan 10130 ta maktab faoliyat yuritadi.

B) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021–2022 o‘quv yilidagi statistik ma’lumotlariga asosan 11130 ta maktab faoliyat yuritadi.

C) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021–2022 o‘quv yilidagi statistik ma’lumotlariga asosan 12130 ta maktab faoliyat yuritadi.

D) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021–2022 o‘quv yilidagi statistik ma’lumotlariga asosan 12000 ta maktab faoliyat yuritadi.

**2. Inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayon bu...**

- A) Mafkuraviy tarbiya
- B) Mehnat tartibi qoidasi
- C) Mafkuraviy tizim
- D) Mafkuraviy tamoyil

**3. Mafkuraviy tizim bir butun yaxlit uyushma bo‘lib, doimo...**

- A) O‘zgarib turadi
- B) O‘zgarmaydi
- C) Jarayon o‘zgarmaydi
- D) To‘g‘ri javob yo‘q

**4. Tarbiyada tanaffus bo‘ladimi?**

- A) Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi

- B) Tarbiyada tanaffus bo‘ladi
- C) Har yili bo‘ladi
- D) 20 yoshdan keyin bo‘ladi

**5. Xodimning ish natijasi uning mehnat unumdorligi, foydalanayotgan omillarining unumdorligi hamda mehnat sharoitlariga bog‘liqligidan kelib chiqib, rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun unumdorlikning obyektiv omillariga nimalar kiradi?**

- A) Ishlab chiqarishni tashkil etish, ish joyini tashkil qilish, mehnat sharoiti
- B) Ish vaqti va tarkibi
- C) Rahbarlar va xodimlar munosabatlari
- D) Ishlab chiqarish muhiti

**6. Xodimning ish natijasi uning mehnat unumdorligi, foydalanayotgan omillarining unumdorligi hamda mehnat sharoitlariga bog‘liqligidan kelib chiqib, rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun unumdorlikning subyektiv omillari ko‘rsating.**

- A) Rahbarlar va xodimlar munosabatlari, ishlab chiqarish muhiti, guruhlardagi muhit
- B) Ishlab chiqarishni tashkil etish
- C) Ish joyini tashkil qilish
- D) Mehnat sharoiti, ish vaqti va tarkibi

**7. Qaysi buyuk sarkarda oilada, ayolni, bolani jamiyat hayotida tutgan o‘rniga alohida e‘tibor bilan qarab, bu masalani davlat ishlari bilan bir qatorga qo‘ygan?**

- A) Amir Temur
- B) Iskandar Zulqarnayn
- C) Jaloliddin Manguberdi
- D) Chingizxon

**8. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi...**

- A) Yoshlarning har tomonlama rivojlanishi va kamol topishini ta’minlash
- B) Shaxs kadrlar tayyorlash
- C) Ilm, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish
- D) Dunyoviy aloqalarni bir-biri bilan bog‘lash

**9. Farobiy: “Insonning kamoloti va munosib inson bo‘lish uchun odamda ikki imkoniyat bor”, – deb aytganda nimani nazarda tutgan?**

- A) Ta’lim va tarbiyani
- B) Irsiyat va muhitni
- C) Aql va harakat
- D) Iqtidor va iste’dodni

**10. “Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘rgatmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila” misrasining muallifi kim?**

- A) A.Navoiy
- B) A.Avloniy
- C) S.Sheroziy
- D) Bobur

**7-topshiriq**  
**Mustaqil ish**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Shakli</b>
1	Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining o‘rni.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
2	Hozirgi davrda oila tarbiyasi oldidagi muammolar.	Multimediali taqdimotlar yaratish
3	Mahallaning tarbiyaviy vazifalari.	Referat (glossariy tuzish, test)

4	Jamiyat hayotining mehnat muassasalari tarbiyaviy muhitiga bog'liqligi.	Test (glossariy tuzish)
5	Odoblilik hamda axloqlik mezonlari.	Referat (glossariy tuzish, test)
6	Axloq-ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash shakli sifatida.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
7	Sharq mutafakkirlarining insoniy tamoyillar to'g'risidagi g'oyalari	Test (glossariy tuzish)
8	Insoniylikka xos xususiyatlar hamda undan uzoqlashtiruvchi illatlar.	Referat
9	Qadriyatlar tushunchasi. Ularning kishilik jamiyati rivojidadagi o'rni.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [lex.uz/docs/6445145](http://lex.uz/docs/6445145)
2. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. [lex.uz/docs/104720](http://lex.uz/docs/104720)
3. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – T.: Movarounnahr, 2005.
4. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2001.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1971.
6. Abdulqosim Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992.
7. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: 1990.
8. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san'at, 1983.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.
10. Abdulla Qodiriy. To'la asarlar to'plami. T.1. – T.: Ma'naviyat, Oila ma'naviyati. O. Safarov, M. Maxmudov. – T.: Ma'naviyat, 2009



11. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2000.

12. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – T.: Maʼnaviyat, 1998.

13. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Xalq merosi, 1993.

#### **4-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARDA MAHALLA HAMDA MEHNAT JAMOALARINING OʻRNI**

##### **REJA:**

*1. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi oʻrni. Mahalla tarbiya maskanlaridan biri. Mahallaning tarbiyaviy vazifalari.*

*2. Mehnat jamoalarida amalga oshirilayotgan mafkuraviy ishlarining oʻziga xos xususiyatlari. Mehnat anʼanalarining mafkuraviy taʼsiri.*

Bugungi kunda Yangi Oʻzbekiston jahon hamjamiyatida munosib oʻringa ega boʻlish va oʻz xalqiga munosib turmush darajasini taʼminlash, barqaror rivojlanish maqsadida kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishni oʻzining ustuvor vazifasi etib belgilagan. Mahalla instituti esa, davlat va jamiyatni, har bir fuqaroni birlashtiruvchi muhim boʻgʻin hisoblanmoqda. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, eʼtiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar ularni ezgulik yoʻlida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi.

Soʻnggi yillarida Oʻzbekistonda ham ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy sohalarda keng koʻlamli oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda. Jamiyatimizda shakllanayotgan yangi iqtisodiy tizim bilan bir qatorda, fuqarolarimizning siyosiy tafakkurida ham yuksalish kuzatilmoqda. Bu institutning mamlakat siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy hayotining ajralmas boʻgʻini sifatida shakllantirish, uning uchun zarur moddiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, bugun barcha islohotlarimiz zamini va ko‘zgusi bu – mahalla. Jamiyatimizdagi barcha jarayonlar mahalla hayotida o‘z ifodasi va amaliy yechimini topadi. “Uchinchi sektor” deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini, mahalla esa, azaldan milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim. So‘nggi yillarda 650 dan ortiq mahalla idorasi yangidan qurildi. 100 dan ziyod tuman va shahar markazida “Mahalla markazi” majmualari barpo etildi. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 5 millionga yaqin yurtdoshimiz yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqdagi sharoitlar yaxshilandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasida ishonchli ko‘prik vazifasini bajargan noyob ijtimoiy tuzilmani tushunamiz”.

Azaliy ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimiz maskani bo‘lgan mahalla bugun kuchli tarbiya o‘chog‘i sifatida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi bilan boyib, yangilanib jamiyat taraqqiyotiga tobora samarali, xolisona xizmat qiluvchi hayot dorilfununiga aylanib bormoqda. Zero, mahalla ahli avvalambor yoshlar qalbini, ongini “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirisha olish” orqali zabt etishga, ezgu-amallarga, bunyodkorlikka yo‘naltirishga astoydil bel bog‘langan.

Milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib va tashviq etish vositalari turkumida mehnat jamoalarining o‘rni alohida ahamiyatga molik. Chunki inson qaysi ijtimoiy guruhga mansub bo‘lmasin, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun u yoki bu mehnat jamoasiga murojaat qiladi, uning bilan birga va uning tarkibida faoliyat ko‘rsatadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan g‘oyalar, qarashlar, qoida va prinsiplar aksariyat hollarda aynan mehnat jamoasining faoliyati orqali inson ijtimoiy qiyofasiga kirib boradi. Binoba-

rin, mehnat jamoalarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, unda amalga oshirilayotgan mafkuraviy ishlarning mohiyatini aniqlash, mehnat jamoalari boshqaruvining demokratik asoslari xususida mulohaza yuritish muhim ahamiyatga ega.

Jamoa kishilarning ma'lum hayotiy ehtiyojlari asosida yuzaga keladigan uyushmadir. Jamoaning paydo bo'lishi va rivojlanishi sababini kishilarning biologik xususiyatlaridan, shuningdek har xil geografik sharoitlardan izlamalik lozim. Tabiiy-geografik sharoit kishilarning tashqi qiyofasiga, gavda tuzilishiga, tiliga, urf-odat va an'analari ta'sir qilishi mumkin, biroq kishilar o'rtasidagi jamoaning paydo bo'lishini belgi-lab berolmaydi. Jamoa – kishilarning oddiy konglomerati emas, bu yerda ularni ishlab chiqarish vazifalarigina birlashtirmaydi. Haqiqiy jamoada, erkin, mas'uliyatini yaxshi his etadigan, o'z qadrini chuqur anglab yetadigan shaxsni shakllantiradigan ijtimoiy aloqalar hukm suradi. Shuning uchun ham A.S.Makarenko jamoaning mohiyatini ochib berar ekan: "Jamoa – sog'lom kishilik jamiyatidagi ijtimoiy organizmdir", – deb yozgan edi. U jamiyat-ning shaxsiga ta'siri jamoa orqali kechishi, turli fazilatlarining shu yerda shakllanishi tufayli jamoadagi aloqa va munosabatlar normativ xarakterga ega bo'lishini e'tiborga olib, jamoa rivojini insonga bo'lgan ijtimoiy talablar taraqqiyoti bilan qiyoslagan edi.

Darvoqe, mulkchilik shakli mehnat jamoalarini turlarga bo'lishning bosh mezonidir. Unga ko'ra, bugungi kunda quyidagi turdagi jamoalar mavjud:

- 1) ijtimoiy mulkchilik shakliga asoslangan mehnat jamoalari;
- 2) xususiy mulkchilikka asoslangan mehnat jamoalari;
- 3) jamoa korxonalari, jamoa-shirkat xo'jaliklarining mehnat jamoalari;
- 4) qo'shma korxonalarining mehnat jamoalari darajasini xarakterlaydi.

Mehnat jamoasining mafkuraviy qudrati unda amal qilayotgan an'analarning mohiyati va xarakteri bilan bog'liq. Agar mehnat jamoalari-dagi mehnat an'analari inson erkinligi va haq-

huquqlarini targ‘ib etsa, uning ozod mehnat qilishi uchun imkon yaratsa, jamoaning mafkuraviy qudrati ham yuqori bo‘ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Qadriyat tushunchasi va uning mazmun mohiyati qanday ahamiyatga ega?
2. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi o‘rnini qanday baholaysiz?
3. Qadriyatlar qanday turlarga bo‘linadi va u haqida nimalarni bilasiz?
4. Bugungi taraqqiyot davrda umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar qanday ahamiyatga ega?
5. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarda qadriyat masalasiga qanday qarashadi?

## AMALIY MASHG‘ULOT

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

#### *1-topshiriq*

#### **Mavzu: Tarbiyaviy jarayonlarda mahalla hamda mehnat jamoalarining o‘rni**

#### **REJA:**

1. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi o‘rni. Mahalla tarbiya maskanlaridan biri. Mahallaning tarbiyaviy vazifalari.
2. Mehnat jamoalarida amalga oshirilayotgan mafkuraviy ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Mehnat an‘analari mehnat mafkuraviy ta‘sirini.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashg‘ulotida og‘zaki shaklda gapirib beradilar.*

#### *2-topshiriq*

**“Mahalla davlat va jamiyatni bog‘laguvchi mustahkam ko‘prik bo‘lmog‘i darkor”** mavzusida esse yozing. Esse –

o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi

### **3-topshiriq**

“Barkamol avlodni tarbiyalashda mahalla institutining o‘rni”: muammolarni assisment usulida aniqlang.

#### **Muammoni yechish usuli**

<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Kuchsiz tomoni</b>

### **4-topshiriq**

**“Jamiyatda mafkuraviy ishlar samaradorligi ta’minlashda mehnat jamoalarining o‘ziga xos xususiyatlari qanday bo‘lishi lozim? FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.**

<b>Savol</b>	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

### **5-topshiriq**

#### **Muammoli vaziyat**

**Mehnat jamoalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o‘rganish va yechimlarini o‘rganish.**

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

## 6-topshiriq

### TEST

#### 1. Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari mavjud qatorni ko'rsating?

A) Milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish, milliy tarix madaniyat va jahon madaniyatining o'ziga xos jihatlarining shakllantirish

B) Milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish

C) Milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish

D) Milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish

#### 2. Tarbiyaning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?

A) O'z yo'lini belgilab olish, tarbiyachining shaxsiy yo'nalganligi, ixtiyoriylik, jamoaviylikka yo'nalish tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyat

B) Ko'nikma, malaka va bilimlarni tizimli egallash

C) Maqsadlar realizmi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati

D) Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati

#### 3. "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" so'zlarining muallifi kim va qaysi asarida keltirilgan?

A) A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida

B) S.Sheroziyning "Guliston va Bo'ston" asarida

C) Y.Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida

D) U.Kaykovusning "Qobusnoma" asarida

#### 4. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni ko'rsating?

A) Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar

B) Tarixiy kitoblar

- C) Osori atiqalar
- D) Insoniyat tajribasi

**5. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi-bu sharqona qarash, va sharqona hayot falsafasi” degan fikr muallifi kim?**

- A) I.A.Karimov
- B) Imom Buxoriy
- C) S.Rajabov
- D) A.Avloniy

**6. Tarbiyaviy ish qanday jarayon hisoblanadi?**

- A) Uzluksiz
- B) O‘quv jarayonida amalga oshiriladigan
- C) Har semestr
- D) Vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan

**7. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi moddasida ko‘rsatilgan.**

- A) 52-modda
- B) 55-modda
- C) 56-modda
- D) 60-modda

**8. “Diling ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” deya ta’kidlangan hikmatli so‘zning muallifi kim?**

- A) Bahovuddin Naqshband
- B) Imom Termiziy
- C) Imom G‘azzoliy
- D) Imom Buxoriy

**9. Qadriyat deganda nimani tushunasiz?**

A) “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e‘tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”

B) “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”

C) “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”

D) Barcha javoblar to‘g‘ri

### 10. Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlardan biri – bu...

A) Kichik biznes va tadbirkorlik

B) Oila

C) Oilaviy biznes

D) Partiyalar uyushmasi

### 7-topshiriq Mustaqil ish

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Shakli
1.	Adabiyot va san’at jamiyatning ijtimoiy ong madaniyat hamda ijtimoiy tarbiyasida tezkor ta’sir etuvchi omillar ekanligi	Referat (glossariy tuzish, test)
2.	“Avesto”da ilgari surilgan komil inson g‘oyasi	Referat (glossariy tuzish, test)
3.	Islom dini ta’limotida tabiat va uning ne’matlarini aziz-u mukarram tutish g‘oyasi	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
4.	Globalashuv sharoitida ta’lim-tarbiya, birinchi galda, ma’naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati.	Taqdimot (test)
5.	Jamiyat taraqqiyoti va tarbiyaviy jarayonlarda axborot oqimlaridan to‘g‘ri foydalanish	Test (glossariy tuzish)
6.	Diniy ta’limotlarda jamiyat hamda tarbiya jarayonlari	test



7.	Mamlakatimizda tarbiyaviy jaryonlarning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi.	Referat (glossariy tuzish, test)
8.	Jamiyat hayotida ma'rifiy-ma'naviy sohaning ustuvorligi, inson qadrlining ulug'lanishi.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
9.	O'zbekistonda Uchinchi renessansning boshlanishi uchun muhim shart-sharoitning yuzaga kelganligi.	Test (glossariy tuzish)

*Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar.*

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [lex.uz/docs/6445145](http://lex.uz/docs/6445145)

2. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. [lex.uz/docs/104720](http://lex.uz/docs/104720)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 3-fevral

4. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 18.02.2020-yildagi PF-5938-sonli Farmoni.

5. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – T.: "O'zbekiston", 2016.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021.-464 b.

7. Raximov M., Legay A. Mehnatning ijtimoiy muamolari.– T.: 1991.

## 5-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLASHUVI

### REJA:

1. *Qadriyatlar tushunchasi. Ularning kishilik jamiyati rivojida o‘rni. Qadriyatlar turlari: shaxsiy, milliy, diniy, mintaqaviy, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar. Qadriyatlar uyg‘unlashuvi jamiyat taraqqiyoti hamda xayfsiz turmush kechirish asosi ekanligi.*

2. *Umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar. Ularga bo‘lgan ehtiyoj-ning ortib borishi.*

Dunyoda har bir millat va xalqning o‘zligini anglashi va asrashi, sha‘nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma‘naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e‘tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro‘yxati sifatida quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin: ota-onaga ehtiro, tozalik, harakatda baraka, o‘zbek tili, diniy bag‘rikenglik, so‘z erkinligi, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo‘stlik, rozi-rizolik

Nima uchun bu qadriyatlar muhim? Milliy qadriyatlarning aniq shakllantirilgan ro‘yxati bormi yoki bo‘lishi kerakmi? Keling, bu masalaga kengroq yondashaylik. Shu choqqa qadar olim-u mutaxassislar “qadriyat” tushunchasiga turlicha ta‘rif bergan. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne‘matlari, hodisalari majmui-ni tushunmog‘imiz lozim”.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e‘tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma‘naviy boyliklar majmuasi”.

“Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”.

“Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”.

Demak, bu ta’riflardan qadriyat - biz uchun qadrlı bo‘lgan urf-odat va an’analarimiz, hayotiy prinsiplarimiz, deb xulosa qilish mumkin.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o‘rganish mumkin: **shaxsiy, milliy, diniy, mintaqaviy, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar.**

Xo‘sh, bugungi kunda dunyo mamlakatlarda qadriyat masalasiga qanday qarashadi? Ayrım misollarnı keltirib o‘tsak.

**AQSH.** Ma’lumki, Amerika Qo‘shma Shtatlari xalqini turli xil millat va elat vakillari tashkil etadi, aniqrog‘i bitta millatning yaqqol ustunligi ko‘rinmaydi, boshqacha aytganda qurama xalq. Bir qarashda ularning har biri uchun o‘ziga xos qadriyat bordek. Bu fikr ham to‘g‘ri, ammo millati va tilidan qat’iy nazar, butun mamlakat xalqi uchun bir xilda taalluqli qadriyatlar ham bor. Hatto ularning aniq ro‘yxati ham shakllantirilgan:

1. Independence (Mustaqillik).
2. Equality (Tenglik).
3. Individualism (Individuallik).
4. Democracy (Demokratiya).
5. Nationalism (Millatparvarlik).
6. Meritocracy (Meritokratiya).
7. Directness (To‘g‘rilik).
8. Innovation (Innovatsiya).
9. Consumerism (Iste’molchilik).
10. Informality (Norasmiylik).
11. Efficient use of time (Vaqtdan unumli foydalanish)

E’tiborlisi, saytdagi manziliga qaralsa, bu ma’lumot “qiyin savollarga javob berish” (answering difficult questions) qismida berilgan. Chunki bu rostdan ham juda qiyin savol. Yaqinlaringizdan biri “bizning qadriyatlarimiz nima?” deb savol berganda javob qaytarishga urinib ko‘ring-chi.

**Daniya.** Endi Amerikadan Yevropaga o‘tamiz. Daniya – Yevropadagi mittigina mamlakat, ammo u ham o‘zining shonli tarixi, bugungi taraqqiyoti va farovonligi bilan g‘ururlana oladi.

Daniyaliklar baxtiyorlik indeksi bo'yicha dunyoda eng oldingi o'rinlarda turadi. Ana shu kichkina mamlakat ham o'z qadriyatlarini ro'yxatini aniqlab olgan. Bunda aholi orasida so'rov o'tkazish usulidan foydalanildi. So'rovda 325 ming kishi ishtirok etdi va ulardan 2500 ta taklif kelib tushdi. 2016-yilning 12-dekabrida Denmark Canon (<https://www.danmarkskanon.dk/>) daniyaliklar uchun qadriyatlar ro'yxatini shakllantirgan.

1. Welfare society (Jamiyat farovonligi). 2. Freedom (Ozodlik). 3. Trust (Ishonch). 4. Equality for the law (Qonun oldida tenglik). 5. Gender equality (Gender tengligi). 6. The Danish language (Daniyaliklar tili). 7. Associations and voluntary work (Uyushmalar va ko'ngillilar ishi). 8. Liberality/tolerance (Erkinlik/tolerantlik). 9. Hygge. Hygge is seen as a special way of being together in a relaxing, nice atmosphere (Xyugg bu xotirjam qiluvchi yoqimli bir muhitda suhbat qurishning o'ziga xos vositasi). 10. The Christian heritage (Nasroniylar merosi).

E'tibor qilgan bo'lsangiz, daniyaliklar umuminsoniy ahamiyatga ega qadriyatlar bilan bir qatorda o'zlarigagina xos bo'lgan qadriyatlarni ham ilgari surmoqda. Buni ona tiliga, urf-odatlar va diniy e'tiqodga bo'lgan hurmat misolida ham ko'rish mumkin.

Buyuk Britaniya. Endi Yevropaning yirik mamlakatlaridan biri - Buyuk Britaniyadagi holatga nazar tashlaymiz. Britaniyaliklar ham "Prevent" ("Oldini olish") strategiyasi doirasida 2011-yilda o'z qadriyatlarini aniqlab olgan. Mana ular:

• Democracy (Demokratiya), • Rule of Law (Qonun ustuvorligi), • Respect (Hurmat), • Tolerance (Tolerantlik, bag'rikenglik), • Individual Liberty (Shaxsiy erkinlik).

Bu qadriyatlarni Britaniya maktablarida targ'ib qilish bo'yicha qo'llanma ham rasman tasdiqlangan. Unda shunday deyilgan: "Biz har bir maktab Britaniyadagi asosiy qadriyatlar bo'lgan demokratiya, qonun ustuvorligi, shaxs erkinligi va turli xil din vakillariga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni targ'ib qilishini istaymiz".

**Rossiya.** Rossiya ham o'z qadriyatlarini aniqlab olgan. Rossiya Federatsiyasida 2025-yilgacha bo'lgan davrda tarbi-

yani rivojlantirish strategiyasida insonparvarlik, adolatlilik, or-nomus, iroda, shaxsiy qadr-qimmat, e'tiqod va ezgulik, o'zi, oilasi hamda Vatani oldidagi ma'naviy burchini bajarishga intilish rossiyaliklarning qadriyatlarini sifatida belgilangan.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qi-yofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Qadriyat tushunchasi va uning mazmun mohiyati qanday ahamiyatga ega?
2. Qadriyatlar kishilik jamiyati rivojiga qo'shadigan hissasini qanday baholaysiz?
3. Qadriyatlar qanday turlarga bo'linadi va u haqida nimalarni bilasiz?
4. Bugungi taraqqiyot davrida umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar qanday ahamiyatga ega?
5. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarda qadriyat masalasiga qanday qarashadi?.

## AMALIY MASHG'ULOT

### Mavzu bo'yicha topshiriqlar

#### *1-topshiriq*

**Mavzu: Tarbiyaviy jarayonlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi**

REJA:

1. Qadriyatlar tushunchasi. Ularning kishilik jamiyati rivojida o'z o'rnini. Qadriyatlar turlari: shaxsiy, milliy, diniy, mintaqaviy, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar. Qadriyatlar uyg'unlashuvi jamiyat taraqqiyoti hamda xavfsiz turmush kechirish asosi ekanligi.

2. Umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar. Ularga bo'lgan ehtiyoj-ning ortib borishi.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashg'ulotida og'zaki shaklda gapirib beradilar.*

### 2-topshiriq

“Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi” mavzusida esse yozing. Esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi.

### 3-topshiriq

“Yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirishda yoshlar tashkilotlari o‘rni”: muammolarni assisment usulida aniqlang.

### Muammoni yechish usuli

Kuchli tomoni	Kuchsiz tomoni

### 4-topshiriq

**Bugungi tahlikali davrda umumbashariy qadriyatlar qanday o‘ringa ega bo‘lishi lozim?** FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.

Savol	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

#### *4-topshiriq*

#### **Muammoli vaziyat**

**Globalashuv jarayonida milliy qadriyatlarning qadrsizlanishi** muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o‘rganish va yechimlarini o‘rganish.

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

#### *6-topshiriq*

#### **TEST**

**1. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ... bilan kurashiladi.**

- A) Tadbirkorlik
- B) Haqiqat
- C) Adolat
- D) Ma’rifat

**2. Ma’naviyatga ta’rif bering...**

- A) Insonning ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan kuch
- B) Ongida ezgu fikrlarni jamlash
- C) Ijtimoiy qarashlar majmui
- D) Faqat qalbinigina o‘zgartira oladigan kuch

**3. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk yozma manbasi?**

- A) O‘rxun-Enasoy yozuvi
- B) Temur tuzuklari
- C) Avesto
- D) Behustun qoyasi yozuvlari

**4. Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo ... tushunish kerak.**

- A) Borliqni
- B) Insonni
- C) Hayotni
- D) Tabiatni

**5. Avestoda keltirilgan triadani keltiring**

- A) Ezgu fikr
- B) Ezgu soʻz
- C) Ezgu amal
- D) Barcha javoblar toʻgʻri

**6. “Agar bizning qudratimizga shubha qilgudek boʻlsangiz, biz qurdirgan imoratlarni koʻring” soʻzlari yoʻzilgan meʼmoriy inshoot?**

- A) Shohi Zinda
- B) Goʻri Amir
- C) Bibixonim masjidi
- D) Oqsaroy

**7. Jumlalarni toʻldiring “Oʻz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning ... yoʻq”.**

- A) Taraqqiyoti
- B) Kelajagi
- C) Oʻtmishi
- D) Islohotlari

**8. “Ommaviy madaniyat”ga xos xususiyat?**

- A) Maʼnaviy boʻshliq
- B) Siyosiy qoloqlik
- C) Maʼnaviy va axloqiy tubanlik
- D) Ilmiy kashfiyotlarning kamligi

**9. Inson qalbiga yoʻl avvalo ... boshlanadi.**

- A) Mehnatdan
- B) Taʼlim-tarbiyadan



- C) Mahalladan  
D) Do‘stlar davrasidan

**10. Umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan kasbiy bayram?**

- A) Shifokorlar kuni  
B) Quruvchilar kuni  
C) O‘qituvchilar va murabbiylar kuni  
D) Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni

**7-topshiriq**  
**Mustaqil ish**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Shakli</b>
1.	Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
2.	Jamiyatda tarbiya jarayonlarini tashkil etish asoslari va yo‘nalishlari	Multimediali taqdimotlar yaratish
3.	Tarbiyaviy jarayonlarning huquqiy asoslari	Referat (glossariy tuzish, test)
4.	Jamiyatda tarbiya maskanlari va ularning faoliyati	Test (glossariy tuzish)
5.	Jamiyatda ijtimoiy hayot va ijtimoiy tarbiya masalalari	Referat (glossariy tuzish, test)
6.	Mehnat tarbiyasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	Referat (glossariy tuzish, test)
7.	Tarbiyaviy jarayonlarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvi	Multimediali taqdimotlar yaratish
8.	Tarbiyada globallashtirish jarayonlarining ta’siri va o‘ziga xos yondashuv	Referat (glossariy tuzish, test)
9.	Jamiyat tarbiyasida adabiyot va san’atning o‘rni	Test (glossariy tuzish)

## ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020.
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T.: “Sharq”, 2004.
4. Nazarov Q. Aksiologiya qadriyatlar falsafasi. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2011.
5. Abdullayev T. Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dialektikasi: fals..f.d-ri diss... – T., 1992.
6. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar. T.: “Yurist media markazi” nashriyoti, 2007.

## 6-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARGA GLOBALLASHUV JARAYONLARINING TA’SIRI

### REJA:

*1. Globallashuv tushunchasi. Globallashuvning jamiyat qarashlariga bo‘lgan ta’siri. Globallashuvning davlatlar va xalqlar manfaatini kengaytirishi hamda ta’siri. Uning salbiy va ijobiy xususiyatlari.*

*2. Globalistlar va aksilglobalistlar. Globallashuv sharoitida ta’lim-tarbiya, birinchi galda, ma’naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati.*

Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983-yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilgan maqolasida qo‘llanilgan edi. U yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman

mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. T.Levittning ushbu ta’rifida globallashuv jarayoni-ning iqtisodiy tomonlariga e’tibor berilgan, xolos. Aslida, globallashuv yaxlit jarayonlarni o’z ichiga qamrab oladi.

Globallashuv bir necha ijobiy jihatlarga ega bo’lib, u jumladan:

- mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liq bo’lgan muammolarni yechishga jiddiy asos yaratadi;

- bozorning kengayishi bilan bir qatorda ixtisoslashuv va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga sabab bo’luvchi xalqaro raqobatni vujudga keltiradi;

- global miqyosda ishlab chiqarishning ratsionallashuvi, zamonaviy texnologiyalarning keng tarqalishi hamda dunyo miqyosida innovatsiyalarni kiritishga qaratilgan raqobat bosimi natijasida kuzatiladigan ish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Biroq globallashuv o’zida nafaqat ijobiy natijalarni, balki o’ziga xos ziddiyatlarni, demak, salbiy natijalarni ham mujassam etgan. Globallashuvning asosiy salbiy jihati, kamchiligi uning ayrim holatlardagi ma’naviyatsizligida. Moddiylashgan tor dunyoqarash, qadriyatlarni noto’g’ri tushunish, irodaning mutlaq egotsentrizm shaklidagi ko’rinishi ushbu dunyoning asosiy tamoyilidir. Globallashuvning salbiy jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rivojlanmagan mamlakatlarning iqtisodiy o’sishi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan sustroq bo’lganligi sababli globallashuvdan keladigan afzallik va ustunliklar asosan rivojlangan mamlakatlar hissasiga to’g’ri keladi;

- boy va kambag’allar o’rtasidagi masofa yanada chuqurlashishi, adolatsizlik, tengsizlik natijasida ko’pgina ziddiyatlar paydo bo’lishi ehtimoli bor;

- ba’zi mamlakatlar iqtisodiyotining nazorati mustaqil hukumatlardan salohiyatliroq bo’lgan xalqaro tashkilotlarga yoki transmilliy korporatsiyalar qo’liga o’tish xavfi mavjud;

- globallashuv natijasida turli yuqumli kasalliklar, giyoh-

vandlik, uyushgan jinoyatchilikning bir mamlakat hududidan boshqalariga tarqalishi osonlashadi;

– globallashuv milliy davlatchilik poydevorining zaiflashuviga va hatto ayrim davlatlarning yo‘qolib ketishiga, g‘arb pop madaniyatining keng tarqalishiga va aksincha, turli milliy madaniyatlarning yuqolib ketishiga olib kelishi mumkin (olimlarning ta’kidlashicha, g‘arb madaniyati ta’sirida hozirgi paytda dunyoda haftasiga 2 ta til o‘lik tilga aylanmoqda).

Globalashuvning o‘zi murakkab jarayon ekanligi sababli unga nisbatan ham jahonga bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo‘lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globalistlar tarafdorlari globalistlar, deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko‘proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo‘lib ular orasida ko‘proq so‘l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlarining vakillari bor.

Ma’naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustun qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g‘oyalar, oqimlar va mafkuralar ma’naviyatimizga vayronkor ta’sir o‘tkazishiga qarshi himoya choralari ko‘rishimiz tabiiy. Chetdan o‘tkaziladigan mafkuraviy ta’sirga qarshi himoya choralari ko‘rishdan avval qanday ta’sirlarni ma’qullash lozim-u, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta xam milliy ma’naviyat yo‘qki, u boshqa xalqlar ma’naviyatidan to‘la ihotalangan bo‘lsa.

Bu borada g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyili davr talabi va hayot haqiqati bo‘lib qolishi darkor. Shu bois bugungi globallashuv davrida jamiyatimiz ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda Vatan va xalq manfaatlari ustuvor g‘oya bo‘lmog‘i, aholi, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak bilimga ega bo‘lgan, o‘z so‘zida sobit turadigan mard, jasur va qat’iyatli insonlar qilib tarbiyalash har qachongidan muhim vazifa hisoblanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Globallashuv fenomenini qanday tushunasiz?
2. G‘arb olamidagi axloqiy muammolarning jamiyat taraqqiyotiga bo‘lgan ta‘sirini qanday baholaysiz?
3. Globallashuv ziddiyatlari qanday jarayonlarda aks etmoqda?
4. Globalistlar va aksilglobalistlar. Ularning maqsadi nima?
5. Nima uchun globallashuv sharoitida ta‘lim-tarbiya mazmunini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarur?

## AMALIY MASHG‘ULOT

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

#### *1-topshiriq*

#### **Mavzu: Tarbiyaviy jarayonlarga globallashuv jarayonlarining ta‘siri**

#### **REJA:**

1. Globallashuv tushunchasi. Globallashuvning jamiyat qarashlariga bo‘lgan ta‘siri. Globallashuvning davlatlar va xalqlar manfaatini kengaytirishi hamda ta‘siri. Uning salbiy va ijobiy xususiyatlari.

2. Globalistlar va aksilglobalistlar. Globallashuv sharoitida ta‘lim-tarbiya, birinchi galda, ma‘naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati.

*Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yoza-dilar va uni seminar mashg‘ulotida og‘zaki shaklda gapirib beradilar.*

#### *2-topshiriq*

**“Globallashuv sharoitida “Oila – maktabgacha tarbiya muassasasi – mahalla – ta‘lim tizimi – Qurolli Kuchlar” for-**

**mulasi asosida yoshlarga milliy g‘oya asoslarini singdirish zaruriyati”** mavzusida esse yozing. Esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida olib boriladi

### **3-topshiriq**

**“Globallashuv davrida milliy davlatchilikni rivojlantirish”** muammolarni assisment usulida aniqlang.

#### **Muammoni yechish usuli**

<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Kuchsiz tomoni</b>

### **4-topshiriq**

**Nima uchun globallashuv sharoitida milliy-ma’naviy xavfsizlik birlamchi bo‘lishi kerak? FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.**

<b>Savol</b>	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

### **5-topshiriq**

#### **Muammoli vaziyat**

**Globallashuv sharoitida jamiyatda ma’naviyatsizlik muammosining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o‘rganish va yechimlarini o‘rganish.**

muammo	
kelib chiqish sabablari	
oqibatlari	
yechimlari	

### **6-topshiriq**

#### **TEST**

**1. Kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha – bu ...**

- A) Fidoyilik
- B) Vatanparvarlik
- C) Jonkuyarlik
- D) Mehribonlik

**2. Vatanparvarlik qanday tuyg‘u?**

- A) Milliy tuyg‘u
- B) Jamoaviy tuyg‘u
- C) Umuminsoniy tuyg‘u
- D) Faqat o‘zbek xalqiga xos tuyg‘u

**3. 1994-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta-shabbusi bilan 17-iyun qanday kun sifatida nishonlanmoqda?**

- A) Dunyoning madaniy iforlari kuni
- B) Butun jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi ku-rash kuni
- C) Tabiatni muhofaza qilish kuni
- D) Butun jahon ekologiyani asrash kuni

**4. “Vatan tarkin bir nafas aylama, Yana ranji g‘urbat havas aylama”. Misralar muallifi kim?**

- A) Alisher Navoiy
- B) Zahiriddin Muhammad Bobur
- C) Cho‘lpon
- D) Maxtumquli

**5. “Kim o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi”. Fikr kimniki?**

- A) Aflotun
- B) Berdaq
- C) Jorj Bayron
- D) Uilyam Shekspir

**6. Vatanparvarlik tashabbuslari berilgan qatorni toping?**

- A) Sportchilarimizning olimpiadalardagi g‘alabalari
- B) O‘quvchilarning o‘qishdagi yutuqlari
- C) Shifokorlarning xalqqa astoydil xizmat qilishi
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

**7. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi qachon e‘lon qilindi?**

- A) 1990-yil 1-sentyabr
- B) 1991-yil 20-iyun
- C) 1991-yil 1-sentyabr
- D) 1991-yil 31-avgust

**8. Davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo‘lgan imkoniyat nima?**

- A) Burch
- B) Mas’uliyat
- C) Huquq
- D) Talab

**9. “Dangasalik har vaqt insonni xor qilur”. Ushbu fikr muallifi kim?**

- A) Abdulla Avloniy
- B) Alisher Navoiy
- C) Abdurauf Fitrat
- D) Mahmudxo‘ja Behbudiy

**10. Insonlarga, butun jonli va jonsiz narsalarga nisbatan samimiy, e‘tiborli va ochiqko‘ngil bo‘lishga nima deyiladi?**



- A) Mehnatsevarlik
- B) Mehribonlik
- C) Sadoqat
- D) Bolajonlik

**7-topshiriq**  
**Mustaqil ish**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Shakli</b>
1.	Jamiyat taraqqiyoti va tarbiyaviy jarayonlarda inson va tabiat uyg‘unligi haqidagi qarashlar hamda g‘oyalari tarixi	Referat (glossariy tuzish, test)
2.	Tarbiyaviy jarayonlarda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurash salmog‘ining ortib borish zarurati	Test (glossariy tuzish)
3.	O‘zbekistonda tarbiyaviy jarayonlarga bo‘lgan e’tibor.	Referat (glossariy tuzish, test)
4.	Tarbiya – uchinchi renessans boshlanishining tamal toshi ekanligi	Taqdimot
5.	Renessans - jamiyatning ijtimoiy tarbiyada yuksak bosqichlarga chiqishi.	Referat (glossariy tuzish, test)
6.	Hozirgi davrda tarbiya haqidagi yangicha yondashuv va fikrlar.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
7.	Qadriyatlar uyg‘unlashuvi jamiyat taraqqiyoti hamda xavfsiz turmush kechirish asosi ekanligi.	Test (glossariy tuzish)

**ADABIYOTLAR**

1. Ergashev I. va boshqalar. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Ijod dunyosi, 2002.
2. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – T.: O‘zbekiston, 2013.
3. Alimardonov T. Siyosat va axloq. - T.: Fan, 2005.
4. Alimardonov T. Erkinlik ruhi. – T.: Nishon-nashr, 2015.
5. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.

6. Gʻaniyev A. Gʻarb olamidagi axloqiy muammolar. – T.: Voris, 2007.
8. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Maʼnaviyat, 2006.
9. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: Akademiya, 2008.
10. Ochildiyev A.S. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-MAVZU: “JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. IJTIMOIY FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI .....	5
2-MAVZU: JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR TO‘G‘RISIDAGI TA‘LIMOTLAR, G‘OYALAR VA QARASHLAR.....	14
3-MAVZU. JAMIYAT VA OILADA TARBIYA MASALASI .....	23
4-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARDA MAHALLA HAMDA MEHNAT JAMOALARINING O‘RNI .....	32
5-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLASHUVI .....	41
6-MAVZU: TARBIYAVIY JARAYONLARGA GLOBALLASHUV JARAYONLARINING TA‘SIRI.....	49

*O'quv-uslubiy nashr*

**A.T.ESHMURODOV**

**JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR**

fani bo'yicha sirtqi ta'lim shakli  
talabalari uchun

*Uslubiy qo'llanma*

“Samo nashr” nashriyoti.  
100029, Toshkent shahri,  
Sirg‘ali tumani 21-uy  
Tasdiqnoma № 1106435 (2022.03.03)

2022.25.11.da bosishga ruxsat berildi. Bichimi 84\*108 <sup>1/32</sup>  
“Times New Roman” garniturasini. Shartli bosma tabog‘i 2,0  
Nashriyot tabog‘i 2,65. Adadi 100 nusxa.

A.T.ESHMURODOV

# JAMIYAT VA TARBIYAVIY JARAYONLAR

fani bo'yicha sirtqi ta'lim  
shakli talabalari uchun

*Uslubiy qo'llanma*